O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”

Rektor O.Sh.Bazarov
2024 yil 27 06

Ro‘yxatga olindi № 05/01/004
2024 yil 29 avgust

# IQTISODIYOT NAZARIYASI

## FANINING O‘QUV DASTURI

| | | |
|---|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 1000000 – | Xizmatlar |
| | 400000 – | Biznes, boshqaruv va huquq |
| **Ta’lim sohasi:** | 1010000 – | Xizmat ko‘rsatish sohasi |
| | 410000 – | Biznes va boshqaruv |
| **Ta’lim yo‘nalishlari:** | 61010400 – | Logistika (iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha) |
| | 60410100 – | Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) |
| | 60410200 – | Buxgalteriya hisobi |
| | 60410500 – | Moliya va moliyaviy texnologiyalar |
| | 60410600 – | Bank ishi |
| | 60410700 – | Statistika |
| | 60410800 – | Menejment |

**Qarshi – 2024 yil**

<table>
<tr><td colspan="2">Fan/modul kodi<br>IQN11210</td><td>O'quv yili<br>2024-2025</td><td>Semestr<br>1, 2</td><td colspan="2">ECTS - Kreditlar<br>1-semestr 5<br>2-semestr 5<br>1-semestr 6 (Logistika)<br>2-semestr 5 (Logistika)</td></tr>
<tr><td colspan="2">Fan/modul turi<br>Majburiy</td><td colspan="2">Ta'lim tili<br>O'zbek</td><td colspan="2">Haftadagi dars soatlari<br>1-semestr 4<br>2-semestr 4<br>1-semestr 6 (Logistika)<br>2-semestr 4 (Logistika)</td></tr>
<tr><td rowspan="7">1.</td><td>Fanning nomi</td><td colspan="2">Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</td><td>Mustaqil ta'lim (soat)</td><td>Jami yuklama (soat)</td></tr>
<tr><td rowspan="6">IQTISODIYOT NAZARIYASI</td><td colspan="4">"Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)", "Buxgalteriya hisobi", "Moliya va moliyaviy texnologiyalar", "Bank ishi", "Statistika", "Menejment" ta'lim yo'nalishlari uchun (I va II semestr)</td></tr>
<tr><td colspan="2">150</td><td>150</td><td>300</td></tr>
<tr><td colspan="4">"Logistika (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha)" ta'lim yo'nalishi uchun (I va II semestr)</td></tr>
<tr><td colspan="2">90</td><td>90</td><td>180</td></tr>
<tr><td colspan="2">60</td><td>90</td><td>150</td></tr>
</table>

2. **I. Fanning mazmuni**

Ushbu fan iqtisodiyotning fundamental asosi bo'lib, u birinchi kursda o'qitiladi. Iqtisodiyot nazariyasi fanining maqsadi iqtisodiyotga kirish, bozorning vazifalarining amal qilishini o'rganishni o'qitishga qaratilgan. Fanning tarkibini tushunish tadbirkorlik qarorlarini qabul qilish, iqtisodiy siyosatni tushunish va ishlab chiqish, umuman olganda zamonaviy iqtisodiy faoliyatni o'rganish kabi jihatlarni o'z ichiga qamrab oladi.

**Fanning maqsadi.** Talabalarga iqtisodiy bilimlarning nazariy asoslarini, iqtisodiyotning asosiy tushunchalari va kategoriyalarini, iqtisodiy qonunlar va tamoyillarini o'rgatish hamda ularni amalda tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilish. Maqsadlar talabalarga quyidagilarni o'rganish imkonini beradi:

- iqtisodiy terminlar, tushunchalar va nazariyalarni bilish va tushunish;
- asosiy iqtisodiy raqamlardan foydalanish va iqtisodiy ma'lumotlarni sharhlash;
- iqtisodiy tahlil vositalaridan foydalanish;
- iqtisodiy g'oyalarni yozma ravishda mantiqiy va aniq ifoda etish;
- iqtisodiy tushunchalarni mavjud iqtisodiy tadqiqotlarda qo'llash.



**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**
**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**"Iqtisodiyot nazariyasi" fanining predmeti va uslublari. "Iqtisodiyot nazariyasi" faniga kirish**

Iqtisodiyot tushunchasi va uning qamrov jihatidan turlari. Iqtisodiy faoliyatning mazmuni. Takror ishlab chiqarish fazalari: ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash, iste'mol. Ehtiyojlarning mazmuni va ularning turkumlanishi. Iqtisodiyot oldidagi muammolar. Iqtisodiyot nazariyasining fan sifatida shakllanishidagi asosiy oqimlar. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti. Iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar.

**Ishlab chiqarish jarayoni va uning natijalari**

Ishlab chiqarish omillari va ularning turkumlanishiga turlicha yondashuvlar. Ishlab chiqarish jarayonining mazmuni va uning iqtisodiy asoslari. Ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishi. Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning o'zaro bog'liqligi. Ishlab chiqarish imkoniyatlari tushunchasi. Ishlab chiqarish samaradorligi, uning ko'rsatkichlari va hisoblash usullari

**Iqtisodiy tizimlar va doiraviy aylanishlar. Mulkchilik munosabatlari**

Ijtimoiy-iqtisodiyot taraqqiyot bosqichlarini bilishga turli xil yondashuvlar: tarixiy-formatsion, madaniylashish (sivilizasiya) darajasi, texnika va texnologik darajasi, iqtisodiy tizimlar o'zgarishi jihatidan yondashuv. Jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchlari. Ishlab chiqarish munosabatlari. Ishlab chiqarish usuli. Sivilizasiyalarning almashuvi nazariyasi. Ishlab chiqarishning texnologik usuli. Iqtisodiy tizim tushunchasi va tizim modellari: an'anaviy iqtisodiyot, ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyoti, bozor iqtisodiyoti.

Mulkchilik munosabatlarining iqtisodiy mazmuni: egalik qilish, foydalanish va tasarruf qilish. Mulkchilikning iqtisodiy va huquqiy jihatlari. Mulk shakllarining tasniflanishi. Mulkchilik shakllarini o'zgartirish usullari: milliylashtirish, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish. Davlat mulkini xususiylashtirishning usullari. O'zbekiston Respublikasida mulkchilikni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonini amalga oshirish bosqichlari.

**Tovar va pul munosabatlari rivojlanishi**

Tovar va uning xususiyatlari. Tovarning nafliligi va ayirboshlanish qobiliyati (qiymati). Tovar qiymatining miqdori. Individual va ijtimoiy

zaruriy naflilik. Mehnatning ikki yoqlama tavsifi: aniq mehnat va abstrakt mehnat.

Pulning kelib chiqishi va mazmuni. Pulning ratsionalistik va evolyutsion konsepsiyalari. Qiymat shakllari. Pul to'g'risidagi metallistik, nominalistik va miqdoriy nazariyalar. Pulning asosiy vazifalari. O'zbekistonda milliy valyuta – so'mning muomalaga kiritilishi bosqichlari va ularning ahamiyati. Milliy valyuta barqarorligini oshirish vazifalarini hal etish borasidagi dasturlar.

**Bozor, talab va taklif. Bozor iqtisodiyoti**

"Bozor" va "bozor iqtisodiyoti" tushunchalarining o'zaro farqlanishi. Bozorning mazmuni va asosiy belgilari. Bozor mexanizmi. Bozorning vazifalari. Talab tushunchasi. Talab qonuni. Giffen samarasi.Talab miqdoriga ta'sir qiluvchi omillar. Taklif tushunchasi. Taklif qonuni. Taklif miqdoriga ta'sir ko'rsatuvchi omillar. Bozor iqtisodiyotining mazmuni va uning rivojlanishi. Bozor iqtisodiyotining sub'yektlari: uy xo'jaliklari, tadbirkorlik sektori, davlat sektori va bank. Bozor iqtisodiyotining asosiy belgilari.

**Biznes va tadbirkorlik. Tadbirkorlik kapitali.**

Tadbirkorlik faoliyatining mazmuni. Tadbirkorlik faoliyati nazariyasining rivojlanish bosqichlari. Tadbirkorlik faoliyatining shakllari: davlat, jamoa, xususiy, aralash va boshqa shakllari. Korxona tadbirkorlik faoliyatining asosiy va boshlang'ich bo'g'ini. Tadbirkorlik kapitalining mohiyati. Tadbirkorlik kapitali va uning harakatidagi ikki tomonlama xususiyatning namoyon bo'lishi. Tadbirkorlik kapitalining funksional shakllari: pul, unumli kapital va tovar. Kapitalning harakat bosqichlari. Tadbirkorlik kapitalining aylanishi. Asosiy va aylanma kapital, ularning farqli belgilari. Kapitalning aylanish vaqti va tezligi. Asosiy kapitalni takror ishlab chiqarish: jismoniy, ma'naviy va iqtisodiy eskirishi va qayta tiklanishi. Amortizatsiya va uning normasi. Tadbirkorlik kapitalini rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlari va qarorlarining hayotga tadbiq etilishi.

**Ishlab chiqarish xarajatlari va foyda**

Ishlab chiqarish xarajatlarini tadqiq etishdagi yondashuvlar. Korxona ishlab chiqarish xarajatlari. Ishlab chiqarish xarajatlarining mazmuni, tarkibi va turlari. Bevosita ishlab chiqarish xarajatlari va muomala xarajatlari. Ichki va tashqi xarajatlar. Doimiy va o'zgaruvchi xarajatlar. O'rtacha va umumiy xarajatlar. So'nggi qo'shilgan xarajatlar



tushunchasi. Xarajatlarni minimallashtirish qoidasi. Qisqa va uzoq muddatli davrda ishlab chiqarish xarajatlari. Korxona (firma) ning pul tushumlari va foydasi. Xarajatlar va daromadlar egri chizig'i. Foyda normasi va massasi hamda ularni hisoblash. Foyda normasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar. Korxonalarning bankrot bo'lishi (sinishi) va sanatsiya qilinishi. Korxonalar foydasini maksimallashtirish sharti va uni ko'paytirish yo'llari

**Raqobat va monopoliya**

Raqobatning mohiyati va obyektiv asoslari. Raqobatning vazifalari. Raqobatning turlari: tarmoq ichidagi va tarmoqlararo raqobat. Raqobat shakllari. Raqobatlashish usullari. Raqobat kurashining zamonaviy shakllari: mahsulot sifatini oshirish, mahsulotni yangilash, xizmat sifati, reklama, servis, marketing va h.k. Monopoliyaning mohiyati va uning vujudga kelishi sabablari. Monopoliyaning mohiyati va uning vujudga kelishi sabablari. Monopoliyalarning turlari. Legal va sun'iy monopoliyalar. Monopoliyalarning afzalliklari va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari.

**Narx shakllanishi va narx siyosati**

Narx mazmuni va uning obyektiv asoslari. Narx to'g'risidagi turli nazariyalar. Narxning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar. Bozor iqtisodiyoti sharoitida narxning vazifalari. Narx turlari. Narx diapazoni. Narx pariteti. Narx tashkil topishining bozor mexanizmi. Mukammal raqobat sharoitida narxning shakllanish xususiyatlari.

**Ish haqi va mehnat munosabatlari**

Ish haqi to'g'risida turlicha nazariyalar. Ish haqining iqtisodiy mazmuni. Nominal va real ish haqi. Real ish haqining darajasi va o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar. Ish haqining tabaqalanishi. Mehnat munosabatlari. Ishchi kuchi talabi va taklifini o'zgartirish.

**Agrar munosabatlar. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish xususiyatlari**

Agrar munosabatlar va ularning bozor tizimidagi xususiyatlari. Yerning resurs sifatidagi o'ziga xos xususiyatlari. Yer rentasining mazmuni va turlari. Ijara haqi. Agrosanoat integratsiyasi. Agrosanoat majmuasi va uning sohalari. Agrobiznes va uning turlari. O'zbekistonda agrar islohotlarni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari.

**Yalpi ichki mahsulot va uni hisoblash usullari. Yalpi talab va yalpi taklif**

Milliy iqtisodiyotning mazmuni va uning tuzilishi. Asosiy

makroiqtisodiy ko'rsatkichlar. Milliy mahsulotning iqtisodiy mazmuni va uning harakat shakllari. Yalpi milliy mahsulot va Yalpi ichki mahsulot. Xufyona iqtisodiyot, uning o'lchamlari va namoyon bo'lish shakllari. Milliy hisoblar tizimi. Yalpi talab tushunchasi va uning tarkibi. Yalpi taklif tushunchasi va uning tarkibi.

**Iste'mol sarflari va jamg'arma. Investitsiyalar va investitsion siyosat**

Iste'molning mazmuni va uning turlari. Iste'mol fondi va iste'mol sarflari. Jamg'arma va uning maqsadi. Iste'mol va jamg'armaga o'rtacha va keyingi qo'shilgan moyillik va ularni aniqlash. Jamg'arishning mazmuni va uning manbalari. Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish maqsadidagi jamg'arish. Jamg'arish normasi. Investitsiyalarning mazmuni va vazifalari. Investitsiyalarning manbalari va tuzilishi. Investitsiyalarga sarflar darajasini belgilovchi omillar. Yalpi va sof investitsiyalar.

**Iqtisodiy o'sish va milliy boylik**

Iqtisodiy o'sish nazariyalari, konsepsiya va modellari. Iqtisodiy o'sishning keynscha va neokeynscha modellari. Kobb-Duglas modelining mazmuni. R.Xarrod va Domar modellari. V.Leontevning "xarajatlar-natijalar" modeli. "Nol darajadagi iqtisodiy o'sish" konsepsiyasi. Iqtisodiy o'sishning mazmuni, mezonlari va ko'rsatkichlari. Iqtisodiy o'sishning ekstensiv va intensiv turlari. Iqtisodiy o'sishning omillari. Milliy boylik va uning tarkibiy qismlari. Moddiy-buyumlashgan, nomoddiy (intellektual) va tabiiy boylik. Mamlakatning iqtisodiy salohiyati. O'zbekistonning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish va iqtisodiy o'sish muammolari.

**Makroiqtisodiy nisbatlar va muvozanatlilik. Makroiqtisodiy beqarorlik: inqiroz va uning turlari**

Iqtisodiy muvozanat tushunchasi. Umumiqtisodiy va xususiy muvozanatlik. Turg'un va muttasil rivojlanib boruvchi muvozanatlik. Iqtisodiy muvozanat darajasini aniqlash usullari. Iqtisodiy mutanosiblik va uning turlari.

Iqtisodiy rivojlanishdagi nomutanosibliklar va ularning namoyon bo'lish shakllari. Iqtisodiyotning sikllі rivojlanishi. Iqtisodiy sikl fazalari. Iqtisodiy sikl nazariyalari. Iqtisodiy sikl turlari. Iqtisodiy inqirozning mazmuni, sabablari va turlari.

**Ishchi kuchi bozori. Ishchi kuchi bandligi va ishsizlik**



Ishchi kuchining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni. Ishchi kuchini takror hosil qilish. Nufus qonuni. Aholining tabiiy o'sishi. Ishchi kuchi migratsiyasi va uning shakllari. Ishchi kuchi bozori. Ishchi kuchiga talab va taklif hamda uni aniqlovchi omillar. Fillips egri chizig'i. Ishchi kuchi bandligi to'g'risida turli xil nazariyalar. Ishsizlik va uning turlari. Ishsizlik darajasi va uni aniqlash. Ishsizlikning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari.

**Moliya tizimi, pul muomalasi, kredit va banklar**

Moliyaning mazmuni va ahamiyati. Moliyaning vazifalari. Moliya tizimi va uning bo'g'inlari. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining tuzilishi. Byudjet taqchilligi va davlat qarzlari, ularning iqtisodiyotga ta'siri. Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliqlar va uning vazifalari. Soliqlarning turkumlanishi. Laffer egri chizig'i. Pul muomalasi. Pul tizimi va uning tarkibiy qismlari. Muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdorini aniqlash va unga ta'sir etuvchi omillar. Pul muomalasi qonunlari. Inflyatsiya va uning kelib chiqish sabablari. Inflyatsiya turlari. Kreditning mohiyati, vazifalari va turlari. Banklarning iqtisodiy mazmuni. Bank tizimi.

**Iqtisodiyotda davlatning roli. Aholi daromadlari: tabaqalanishi va tengsizligi**

Iqtisodiyotni tartibga solishning mohiyati va zarurligi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning maqsadi. Aholi daromadlari, ularning turlari va shakllanish manbalari. Daromadlar tengsizligi va uning darajasini aniqlash. Lorens egri chizig'i. Detsil va Jini koeffitsiyentlari. O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida aholini ijtimoiy himoyalashning asosiy yo'nalishlari

**Jahon xo'jaligi va uning evolyutsiyasi**

Jahon xo'jaligining tashkil topishi, bosqichlari va asosiy belgilari. Jahon mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari. Globallashuv jarayonining mohiyati, asosiy yo'nalishlari va ziddiyatli tomonlari. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning mazmuni va shakllari.

**Xalqaro iqtisodiy integratsiya. Jahon bozori**

Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati, shakllari va obyektiv asoslari. O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi va tashqi iqtisodiy faoliyati. Xalqaro savdo to'g'risidagi turli xil nazariyalar. Xalqaro savdoning mazmuni. To'lov balansi va uning tarkibi. Tashqi

savdo balansi: Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari. Milliy va xalqaro valyuta tizimi. Jahon valyuta tizimining rivojlanish bosqichlari.

**III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. "Iqtisodiyot nazariyasi" fanining predmeti va uslublari. "Iqtisodiyot nazariyasi" faniga kirish
2. Ishlab chiqarish jarayoni va uning natijalari
3. Iqtisodiy tizimlar va doiraviy aylanishlar. Mulkchilik munosabatlari
4. Tovar va pul munosabatlari rivojlanishi
5. Bozor, talab va taklif. Bozor iqtisodiyoti
6. Biznes va tadbirkorlik. Tadbirkorlik kapitali
7. Ishlab chiqarish xarajatlari va foyda
8. Raqobat va monopoliya
9. Narx shakllanishi va narx siyosati
10. Ish haqi va mehnat munosabatlari
11. Agrar munosabatlar. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish xususiyatlari
12. Yalpi ichki mahsulot va uni hisoblash usullari. Yalpi talab va yalpi taklif
13. Iste'mol sarflari va jamg'arma. Investitsiyalar va investitsion siyosat
14. Iqtisodiy o'sish va milliy boylik
15. Makroiqtisodiy nisbatlar va muvozanatlilik. Makroiqtisodiy beqarorlik: inqiroz va uning turlari
16. Ishchi kuchi bozori. Ishchi kuchi bandligi va ishsizlik
17. Moliya tizimi, pul muomalasi, kredit va banklar
18. Iqtisodiyotda davlatning roli. Aholi daromadlari: tabaqalanishi va tengsizligi
19. Jahon xo'jaligi va uning evolyutsiyasi
20. Xalqaro iqtisodiy integratsiya. Jahon bozori

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Iqtisodiyotga kirish.
2. Iqtisodiy tizim turlari.
3. Talab, taklif, bozor muvozanati.



4. Elastiklik.
5. Iste'molchilar tanlovi nazariyasi.
6. Ishlab chiqarish va xarajatlar.
7. Mukammal bozor va monopoliya.
8. Monopolistik raqobat va oligopoliya.
9. Bozordagi muvaffaqiyatsizliklar va samaradorlik.
10. Davlatning iqtisodiy roli.
11. Ish haqini aniqlash.
12. Daromadlarning taqsimlanishi, tengsizlik va qashshoqlik.
13. Makroiqtisodiyotga kirish.
14. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar.
15. Qisqa muddatli iqtisodiy o'sish.
16. Uzoq muddatli iqtisodiy o'sish modellari.
17. Bank tizimi.
18. Pul, inflyatsiya.
19. Pul-kredit siyosati.
20. Jamg'arma, investitsiya.
21. Moliyaviy tizim.
22. Davlat byudjeti va fiskal siyosati.
23. Ishsizlik.
24. Biznes sikllari.
25. Xalqaro savdo.
26. Xalqaro valyuta munosabatlari va valyuta kursi.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan loyiha ishi, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

3. **V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:
- iqtisodiyot nazariyasi asoslari;
- fanining vujudga kelishidagi asosiy ta'limotlar va uning rivojlanishining asosiy yo'nalishlari;
- milliy iqtisodiyotning amal qilishi va rivojlanishi qonuniyatlarini;
- makroiqtisodiy darajadagi vaziyatlarni;
- iqtisodiy jarayonlarning amal qilish xususiyatlari hamda ularning asosiy g'oyalari to'g'risida *yaxshi tasavvurga ega bo'lishi;*
- iqtisodiy hodisalar va jarayonlarning o'zaro aloqa va bog'liqligini;
- resurslarning cheklanganligini va aholi farovonligini oshirish maqsadida ulardan muqobil foydalanish usullarini;
- talaba iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tahlil qilish usularini;
- iqtisodiy jarayonlarni matematik usullar orqali tahlil qilishni bilishi va ulardan foydalana olishi;

| | |
|---|---|
| | - iqtisodiyotning turli: mikro, mezo, makro, mega darajasida optimal qaror qabul qilish;<br>- iqtisodiyotni boshqarish va makroiqtisodiyotda muvozanatga erishish;<br>- barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va boshqa muammolarni hal qilish;<br>- iqtisodiy qonunlarni;<br>- ilmiy tushunchalar (kategoriyalar) ni;<br>- iqtisodiy muammolar bo'yicha yechimlar qabul qilish *ko'nikmalariga ega bo'lishi*;<br>- bakalavrlar mazkur fanni o'rganish jarayonida olgan bilimlarini umumlashtirish, undan to'g'ri xulosa chiqarish va kelajakda amaliyotda undan foydalanish;<br>- talaba iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish va xulosa chiqarish;<br>- iqtisodiy muammolarini hal etish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar to'plash va ulardan foydalanish *malakalariga ega bo'lishi kerak.* |
| **4.** | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>– ma'ruzalar;<br>– real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish;<br>– esse, tezis va maqolalar yozish;<br>– vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) yechish;<br>– jarayonli-yo'naltirilgan ta'lim;<br>– muhokamalarda ishtirok etish;<br>– kichik guruhlarda ishlash;<br>– loyiha ishi bajarish;<br>– mustaqil ishlarni bajarish;<br>– taqdimot tayyorlash;<br>– turli darajadagi testlarni yechish;<br>– so'rov o'tkazish. |
| **5.** | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test yoki yozma ishni topshirish. |
| **6.** | **Asosiy adabiyotlar:**<br>1. Sh.Sh. Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik.-T.: "Fan va texnologiya", 2005, 784 bet.<br>2. A.O'lmasov, A.V. Vahobov. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: "Sharq", 2006. – 480 бет. |



| | |
|---|---|
| | 3. A.O'lmasov, A.V. Vahobov. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik (to'ldirilgan va qayta ishlangan nashri). – T.: "Iqtisod-moliya", 2014. – 424 бет.<br>4. B.Y.Xodiyev, Sh.Sh. Shodmonov Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: "Barkamol fayz media", 2017, 784 bet.<br>5. Экономическая теория: учебник для студ. Вузов / Науч. ред. и рук. авт. коллектива В.Д.Камаева. – 4-е изд., перераб. и доп. – М.:Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 1999. – 640 с.: ил.<br>6. Шишкин А.Ф. Экономическая теория: учебное пособие для вузов. 2-е изд.: В 2 кн. Кн.1. – М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 1996. – 656 с.: илл.<br>7. Шишкин А.Ф. Экономическая теория: учебное пособие для вузов. 2-е изд.: В 2 кн. Кн.1. – М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 1996. – 352 с.: илл.<br>8. Фишер С., Дорнбуш Р., Шмалензи Р. Экономикс. Пер. с англ. со 2-го изд. – М.: Дело, 1997. – 864 с.<br>9. Дж. Майкл Морган. Руководство по изучению учебника С.Фишера, Р.Дорнбуша, Р.Шмалензи "Экономика". – М.: Дело, 1997.<br>10. Economics / Slavin, Stephen L. – 4th ed. 1996<br>11. Economics / David C. Colander. 1993<br>12. Gregory Mankiw. Principles of Economics, Boston, MA, USA : Cengage Learning 2018. – 360 p.<br>**Qo'shimcha adabiyotlar**<br>1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: O'zbekiston, 2023.<br>2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 60-sonli Farmoni. https://lex.uz/docs/-5841063, 2022 yil 28-yanvar.<br>3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so'zi, 20.12.2022.<br>4.Razzoqov A., Tashmatov Sh, O'rmonov N. Darslik. T.: Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. "Iqtisod-moliya", 2007. – 320 bet.<br>5.Дэниелс Джон Д., Радеба Ли Х. Международный бизнес: внешняя среда и деловые операции. Пер. с англ. 6-е изд. – М.: "Дело Лтд", 1994. 784 с., 8 вкл. |
| | **Axborot manbaalari**<br>www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.<br>www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.<br>www.tradingeconomics.com – экономические показатели |

| | |
|---|---|
| **7.** | Fan dasturi QarMII Iqtisodiyot fakulteti Kengashining 2024 yil ___ _____ -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.<br>Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti Kengashining 2024 yil ____ _____ ____-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan fan dasturlarini o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya etilgan. |
| **8.** | **Fan/modul uchun mas'ul:**<br>M.X.Dustova – QarMII "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrasi katta o'qituvchisi |
| **9.** | **Taqrizchilar:**<br>G'.F.Qo'chqorov – QarDU, "Iqtisodiyot" kafedrasi professori, iqtisod fanlari nomzodi, (turdosh OTM)<br>G.T.Samiyeva – QarMII, "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti, i.f.f.d. (PhD). |